


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60311000 – Sotsiologiya bakalavriat ta’lim
yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent — 2023



ISHLAB CHIQLGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «7»
08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60311000 – Sotsiologiya</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60311000 – Sotsiologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi...	4
1.1..	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60311000 – Sotsiologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60311000 – Sotsiologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60311000 – Sotsiologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	<i>60311000 – Sotsiologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	<i>60311000 – Sotsiologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60311000 – Sotsiologiya</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	10
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	11
2.3.2.	<i>60311000 – Sotsiologiya</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	11
2.3.3.	<i>60311000 – Sotsiologiya</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tuzilishi	11
	Bibliografik ma'lumotlar	12
	Kelishuv varog'i	13

1. 60311000 – Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi

60311000 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60311000 – Sotsiologiya Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60311000 – Sotsiologiya** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60311000 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60311000 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60311000 – Sotsiologiya jamiyat ijtimoiy hayoti, uning sotsial strukturasi, shuningdek, uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning faoliyati, turli sotsial voqealar, jarayonlar hamda kishilarning sotsial xulq-atvori qonuniyatlarini butun bir ijtimoiy murakkab tizim sifatida qamrab olib, o'zining konkret empirik metodlari asosida ularni nazariy va amaliy jihatlarda tadqiq etadi. Mazkur yo'nalish jamoatchilik fikrini o'rganish markazlari, ommaviy axborot vositalari, davlat hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, siyosiy partiyalar, marketing va konsalting xizmat ko'rsatish, ijtimoiy ta'minot, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida yo'nalishga doir masalalarni yechish majmuini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 60311000 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

– jamiyat va uni tashkil etuvchi ijtimoiy tizimlar, shaxs, sotsial jamoa, sinf va guruhlar, ijtimoiy institut va tashkilotlarda ijtimoiy tadqiqot olib boruvchi davlat va nodavlat tashkilotlar tizimlarida;

– sotsial stratifikatsiya (tabaqalanish) va sotsial mobillik jarayonlarini doimiy tadqiq etadigan statistika qo'mitasi tizimlarida;

– sotsial harakat, munosabat va aloqalarni muvoffiqlashtiruvchi mahalla vazirligi tizimlarida;

– ommaviy axborot vositalari tizimlarida;

– ijtimoiy boshqaruvni amalga oshiruvchi hokimiyat organlarida;

– ijtimoiy xizmat va konsalting xizmatlarida;

– doimiy va ekstremal sotsial hodisalar va jarayonlar tadqiq etiladigan favqulotda vaziyatlar vazirligi tizimlarida;

– jamiyatdagi ijtimoiy meyorlar va kishilar sotsial xulq-atvorlarini tartibga soluvchi ichki ishlar organlari tizimlarida;

– jamoatchilik fikrini o'rganish markazida;

– jamoatchilik fikrini o'rganish asosida faoliyat yurituvchi xalqaro va nodavlat tashkilotlarida;

– ishlab chiqarish korxonalarida;

– mudofaa vazirligi tizimlarida;

– ijtimoiy qonun va qonuniyatlarni natijakorligini oshirish jarayonlarini takomillashtiruvchi sotsiologiya institutida faoliyat yuritishlari mumkin.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.3. 60311000 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

• *ilmiy-tadqiqot;*

• *ishlab chiqarish;*

• *tashkiliy-boshqaruv;*

• *loyihaviy;*

• *ma'naviy-ma'rifiy;*

• *turli xizmatlar ko'rsatish va shu kabilarni o'z ichiga oladi.*

1.2.4. 60311000 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60311000 – Sotsiologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy sohada namunaviy metodikalar asosida ilmiy-tadqiqotlarni olib borishi, ularning natijalarini qayta ishlab, ular asosida ilmiy asoslangan xulosalarini ilgari sura olish;
- fundamental va amaliy sotsiologik tadqiqotlarni tayyorlash va o‘tkazishda tadqiqot dasturini tuzish, birlamchi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish bosqichlarida ishtirok etish;
- zamonaviy informatsion texnologiyalar, hisoblash texnikasi vositalari, kommunikatsiya va aloqalarni qo‘llash asosida keng turkumdagi manbalarni jalb qilish orqali ijtimoiy, demografik, iqtisodiy va boshqa empirik ma’lumotlarni qayta ishlash;
- sharh va annotatsiyalar tayyorlashda qatnashish;
- sotsiologik tadqiqotlar hamda sotsiologik nazariyalarning tushuntiruvchi imkoniyatlaridan foydalangan holda boshqa empirik ma’lumotlarni interpretatsiya qilish;
- tadqiqot ishlari natijalari bo‘yicha hisobotlar, analitik ma’lumotnoma, kasbga oid nashrlar, informatsion ma’lumotlar tayyorlashda ishtirok etish;
- tadqiqot natijalarini taqdim etish, o‘tkazilgan tadqiqot mavzusi bo‘yicha xabarlar va ma’ruzalar bilan turli ilmiy doiralarda qatnashish va ilmiy maqolalar chop etish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.**

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning natija va oqibatlarini baholash, sotsial ekspertiza;
- hokimiyat va boshqaruv organlarida, ta’lim, fan, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalarida hamda sotsial kommunikatsiyalar va kasbiy faoliyatning boshqa sohalarida ma’rifiy, informatsion va konsultativ ish;
- huquqni muhofaza qilish organlarida ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha analitik ish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha konsultativ va servis ishi;
- korxonalar, tashkilot, muassasa, tarmoq soha va hududlarni ijtimoiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida tadqiqotlarning meyoriy-metodik va ma’lumotlar bazasini ta’minlash;
- ijtimoiy guruhlarning ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash, ularning bir-birlari va ijtimoiy jamoalar (mehnat jamoasi, hududiy jamoa)ning rivojining ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlari bilan o‘zaro kelishuv mexanizmlarini taklif etish;
- korxonalar, tashkilot va muassasalarda ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan dolzarb muammolarni o‘rganish;
- ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- korxonalar va tashkilotlarda mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, mehnat faoliyati sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

– korxonada va tashkilotlarda kadrlar, ishlovchilarning kasbiy malakaviy va demografik tarkibining o‘zgarishini tahlil qilish;

– ijtimoiy masalalarni hal qilish bo‘yicha korxonada, muassasa va tashkilot boshqaruv organlari xodimlariga maslahat berish, sotsiologik yondashuvlarni qo‘llash **qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.**

– **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

– ijtimoiy sohalarni monitoringini ta‘minlaydigan ma‘lumotlar bazasini shakllantirish va tahlil qilish, unga boshqaruv ta‘sir chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda boshqaruv ta‘sir samarasini baholash, shu bilan birga ma‘lumotlar manbalarini ularning zaruriyligi, yetarliligi va ishonchliligini baholash maqsadida audit qilish;

– hokimiyat va boshqaruv, mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlarida, tashkilot va muassasalarning ma‘muriy-boshqaruv bo‘linmalarida boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etish;

– ilmiy konsultatsiya va ekspertiza, ma‘lumot almashinuvlari masalalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot muassasalari va informatsion-analitik xizmatlar bilan aloqalarni tashkil etish hamda ta‘minlashda ishtirok etish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.**

Loyihaviy faoliyatda:

– joriy va davriy ko‘rsatkichlar nisbati tahlili va zarur resurslarni hisobga olgan holda uni optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, loyihaviy faoliyatning monitoringi uchun ma‘lumotlar bazasini yaratish;

– tadqiqot, analitik va konsalting loyiha faoliyatini amalga oshirish uchun metodik instrumentariylar, meyoriy hujjatlar, informatsion ma‘lumotlar ishlab chiqishda qatnashish;

– ijtimoiy ko‘rsatkichlar, jarayon va munosabatlarni diagnostika qilish, baholash, takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etish;

– jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, tadqiqot natijalarini tarqatishda ishtirok etish;

– turli maqsadli auditoriyalar uchun marketing tadqiqotlarni ilmiy-metodik, texnik va informatsion jihatdan ta‘minlash, marketing xizmatlar uchun tavsiyalar ishlab chiqishda ishtirok etish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.**

Ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida:

– tashkilot, korxonada, muassasa va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlarining taklif va talablari asosida sohaga tegishli ma‘rifiy tadbirlarini tashkil etish;

– mahalliy matbuot, ilmiy-ommabop teleradio eshittirish, ko‘rsatuvlarda sohaga tegishli materiallar bilan ishtirok etish **qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.**

Turli xizmatlar ko‘rsatish faoliyatida:

– sotsiologiya sohasi mutaxassisliklari bo‘yicha mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

– muassasa, tashkilotlarda va korxonalarda sotsiologik xizmatni tashkil etish va uni amalga oshirish;

– sotsiologik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

– sotsiologiya sohasiga tegishli magistr tayyorlash ixtisosligiga mos bo‘lgan ilmiy loyihalarni ekspertiza qilish bo‘yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish; ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim*

2. 60311000 – Sotsiologiya ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- matematik va ijtimoiy fanlar bilan maxsus fanlar o‘rtasida ilmiy va nazariy bog‘liqlikni ta‘minlashi;

- ta‘lim yo‘nalishi ixtisoslik fanlarni o‘rganish va chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko‘nikma va uquvlarni shakllantirishi;

- ta‘lim yo‘nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o‘rtasida ilmiy va nazariy bog‘liqlikni ta‘minlashi;

- ta‘lim yo‘nalishi ixtisoslik fanlarni o‘rganish va chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko‘nikma va uquvlarni shakllantirishi;

- ta‘lim yo‘nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- sotsiologiya fani paydo bo‘lishi va shakllanishi, strukturasi, vazifalari, qonuniyatlari, hozirgi holati yuzasidan tasavvurga ega bo‘lishi; sotsiologiya fani vujudga kelishi, rivojlanishi, unda mumtoz va zamonaviy ta‘limotlar, G‘arb va Sharqdagi sotsiologik maktablar va nazariyalar to‘g‘risida yetarli darajada bilimni shakllantirish; turli sotsiologik konsepsiyalar va ularning xulosalarini metodologik

tahlil qilish; sotsiologik ta'limotlarning rivojlanishidagi o'rganilayotgan qonuniyatlar negizida jamiyatni isloh qilish bilan bog'liq munozarali masalalarni muhokama qilish va muammoli holatlarni mustaqil ravishda baholash; turli davrlardagi sotsiologik g'oyalarni umumlashtirish va tahlil etish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va yangi sotsiologik konsepsiyalarni yarata olish;

- sotsiologik tadqiqot, uning bosqichlari, tadqiqotga qo'yiladigan talablar, tadqiqot dasturi, o'lchash va shkalalar, birlamchi ma'lumotlar to'plash metodlari, ma'lumotlarni EHM da qayta ishlash va tahlil qilish, sotsiologik hisobot tayyorlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; sotsiologik tadqiqot o'tkazish; sotsial monitoring olib borish; tashkilot, muassasa, korxonalar bilan sotsiologik tadqiqot o'tkazish uchun buyurtmalar olish; sotsiologik tadqiqotlar asosida bashorat qilish va loyihalashtirish; sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish usul va dasturlaridan yetarli darajada foydalana olishi;

- ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlar to'g'risidagi axborotlarni olish, qayta ishlash va tahlil etish, ular bilan bog'liq qonuniyatlarni aniqlash borasida statistik tahlil usullarini egallash imkonini berish;

- mehnat sohasida ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish va foydalanish usullariga ega bo'lish; mehnat sohasiga tegishli ijtimoiy masalalarni yechishda asoslangan mustaqil qarorlarni qabul qilishni bilish; xodimlar mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish; mehnat bozorida talab va taklifni o'rganish; mehnat sohasi bo'yicha barcha ijtimoiy axborotlarni to'plash;

- zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan iqtisodiy hodisalarni to'g'ri tavsiflay olish; turli iqtisodiy xususiyatda kechayotgan hodisalarni xolis qiyosiy taqqoslay olish; muayyan iqtisodiy hodisa va voqealarga kishilarning shaxsiy munosabatlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni tashkil etish; iqtisodiy sohalarda o'tkazilgan amaliy sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalana olish va tavsibanomalarni yaratish;

- oilaviy munosabatlarda gender tenglik masalalariga to'g'ri baho bera olish; ajralish holatlarini bartaraf etishda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan oila siyosatning mazmun mohiyatini tahlil qila olish; oilaning barpo bo'lishida ikki tarafning teng imkoniyatlari haqida bilish va undan foydalana olish; Sharq va G'arbda hozirgi kundagi oilaga bo'lgan munosabat, ular o'rtasidagi farqlarni tahlil qila olish, undan ilmiy faoliyatda foydalana bilish; o'tkazilgan gender tadqiqotlar va ularni tahlil qila olish; gender muammosini gumanitar fanlarda o'rganilishi va ulardan foydalana olish; jamiyatdagi stratifikatsion qatlamlar va gender muammosining ushbu qatlamlarni vujudga kelishiga ta'siri to'g'risida bilishi va tahlil qila olish;

- tashkilotda personalga bo'lgan miqdoriy extiyojni hisoblash; tashkilot va muassasada moslashuv jarayonini boshqarish; personalga ta'lim berish tizimini tashkil etish; tashkiliy va ma'naviy rag'batlantirish usullarini qo'llash; siyosiy bilim va dunyoqarash asosida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilish;

- ijtimoiy-siyosiy muammolarni sotsiologik tadqiq etish; xalqaro munosabatlar tizimi, mazmun-mohiyatini ilmiy tahlil etish; global muammolarni siyosiy-sotsiologik nuqtai-nazardan ilmiy sharhlash;

- statistik usullar yordamida statistik tadqiqotlar olib borish; sotsial holatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni statistik tahlil qilish va baholash; variatsiya ko'rsatkichlarini hisoblash va ularni talqin qilish; aholi turmush darajasini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlarni hisoblash;

- ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishning zamonaviy dasturi ta'minotini qo'llash bilan ma'lumotlarni qayta ishlash; korporativ informatsion tizimlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lgan boshqaruv ma'lumotlarini birlamchi va ikkilamchi tahlil qilish;

- jamoatchilik fikrini o'rganish natijalari asosida ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish va takliflar bera olish; jamoatchilik fikri shakllanishini boshqarishning samarali usul va vositalaridan foydalana olish; jamoatchilik fikrini o'rganish bilan bog'liq munozarali masalalarni muhokama qilish va muammoli holatlarni mustaqil ravishda baholash;

- sotsial bashorat va loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini bilish; sotsial loyihalashtirish asoslarini nazariy-amaliy tahlil qilish; sotsial bashoratning umumiy muammosi doirasida ayrim vazifalarni yechish kabi bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash;

- madaniyatlarni sotsiologik tahlil qilish metodini o'zlashtirish; empirik sotsiologik tadqiqot o'tkaza olish; zamonaviy O'zbekiston sharoitini madaniy interpretatsiya qilish; madaniyatlarni sotsiologik tahlil qilish metodini o'zlashtirish; empirik sotsiologik tadqiqot o'tkaza olish; zamonaviy O'zbekiston sharoitini madaniy interpretatsiya qilish; madaniyatlarning xilma-xil ko'rinishi; madaniyat kanallari; insonlarning estetik qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish; dunyo va milliy qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi; davlat islohotida sotsio-madaniy jarayonlarni o'zaro ta'sirining o'ziga xosligini tushunish borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarni shakllantirishi lozim.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. Kvalifikatsiya: sotsiolog, tahlilchi

2.3.2. 60311000 – Sotsiologiya ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar:

O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4860	162
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	690	23
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

2.3.3. 60311000 – Sotsiologiya bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o’tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4860	162	
1.01	OMTB104	Oliy matematika	120	4	1
1.02	UYTB104	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.03	FALB104	Falsafa	120	4	2
1.04	URTB104	O’zbek (rus) tili	120	4	2
1.05	XJTB104	Xorijiy til	120	4	1
1.06	DINB204	Dinshunoslik	120	4	4
1.07	RATB104	Raqamli axborot texnologiyalari	120	4	2
1.08	JAFB106	Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi	180	6	1
1.09	STAB112	Sotsiologiya tarixi	360	12	1,2
1.10	UMSB118	Umumiy sotsiologiya	540	18	1,2,3
1.11	OGSB106	Oila va gender sotsiologiyasi	180	6	2
1.12	DXEB204	Davlat xizmatchi etikasi va imiji	120	4	3
1.13	TASB310	Tashkilotlar sotsiologiyasi	300	10	5,6
1.14	ISTB206	Ijtimoiy statistika	180	6	3
1.15		Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi, metodi va texnikasi	360	12	3,4
	STMB212				
1.16	TASB204	Ta’lim sotsiologiyasi	120	4	4
1.17	SMQB310	Sotsiologik ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish	300	10	5,6
1.18	MBSB208	Mehnat va bandlik sotsiologiyasi	240	8	3,4

1.19	ITMB306	Ijtimoiy tadqiqotlarning mantiqiy asoslari	180	6	5
1.20	IJSB208	Ijtimoiy siyosat	240	8	3,4
1.21	SXMB306	Siyosiy va xalqaro munosabatlar sotsiologiyasi	180	6	6
1.22	DISB406	Din sotsiologiyasi	180	6	7
1.23	HASB406	Harbiy sotsiologiya	180	6	7
1.24	SHSB406	Shahar sotsiologiyasi	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1200	40	4,5,6,7
		Jami	6060	202	
		Malakaviy amaliyot	690	23	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
		Jami	1140	38	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKC 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, malaka, amaliyot, attestatsiya, sotsiologiya predmeti, ijtimoiy tizim, sotsial voqelik, ijtimoiy-madaniy tizim, jamiyat, shaxs, individ, sotsial jamoa, sotsial guruh, birlamchi va ikkilamchi guruh, rasmiy va norasmiy guruh, katta va kichik guruh, referent guruh, inguruh va autguruh, kvazi guruh, sotsial kategoriya, sotsial agregatsiya, sotsial doira, sotsial institut, sotsial tashkilot, byurokratiya, sotsial boshqaruv, sotsial harakat, sotsial o'zaro harakat, sotsial munosabat, sotsial aloqa, sotsial kontakt, sotsial struktura, sotsial stratifikatsiya, so'rov metodi, anketa (so'rov varaqasi), intervyu, intervyuyer, respondent, supervayzer, analitik. sotsiometriya, fokus guruh, moderator, semantik differentsiatsiya, ekspert baholash usuli, sotsial eksperiment, biografik metod, hujjat, kontent analiz, oilaning reproduktiv funksiyasi, sotsial statistika, statistik kuzatuv, saralangan kuzatuvlar, indekslar, jamoatchilik fikri, sotsial xizmat, sotsial menedjment, imkoniyati cheklangan fuqarolar, konflikt, konflikt paradigmasi, ommaviy harakatlar, konsensus, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:




O'zbekiston Milliy universiteti


Rektor  L. Madjidov

2023 yil " _____ " _____

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq
etish markazi



Direktor  Sh. Yakubov

2023 yil " _____ " _____

M.O'.

"Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini
o'rganish markazi




Direktor  N. Raximova

2023 yil " _____ " _____

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Mudofaa vazirligi

Vazir o'rinbosari 
H. Qarshiyev

2023 yil " _____ " _____

M.O'.

Toshkent Davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



Rektor  Sh. Sirojiddinov

2023 yil " _____ " _____

M.O'.